

**INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA EKOLOGIK MADANIYATNI  
RIVOJLANISHINI TA’MINLOVCHI OMILLAR.**  
(Factors contributing to the development of environmental culture in  
English language learning)



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-124-129>

**Obidova Gulmira Kuzibaevna**

FarPI, “Tillarni o’rgatish” kafedrası dotsenti

e-mail: [guli.obidova.1986@gmail.com](mailto:guli.obidova.1986@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada ingliz tili fanini o‘rganishda ekologik ta‘lim usullarining muhim omillari haqida so‘z boradi. Shuningdek, ingliz tilining o‘qitishda ekologik madaniyatni takomillashtirish va rivojlantirishga hamda talabalarni atrof-muhitga bo‘lgan muhabbatini oshirishga qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ekologik ta‘lim, ekologik savodxonlik, gumanizasiya, ekologik tematika*

**ABSTRACT**

*This article highlights the important factors of ecological education in teaching a foreign language. It also discusses improving and developing an ecological culture in English language teaching and to increase students’ love for the environment*

***Keywords:** ecological education, ecological literacy, humanization, ecological themes*

**KIRISH**

Zamonaviy pedagogika fanida ijtimoiy-gumanitar bilimlarni ekologiyalashtirish muammosi eng muhim tamoyillardan biridir. Pedagogika sohasi bo‘yicha adabiyotlarida ta‘lim-tarbiya tizimini ekologizasiyasi inson va atrof-muhit munosabatlarining innovasion tamoyillarni to‘laqonli shakllantirish nazarda tutadi. Bu tamoyillar tabiatni saqlash va tiklashga oid shaxsiy javobgarlik tuyg‘usi, tirik mavjudotlar hamda evolyusiyaga muhabbatga asoslangan bo‘lishi lozim. Bularning barchasi zamonaviy globalizasiya jarayonini tashkil qilishning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

Ta‘limni ekologizasiyasi to‘liq qaytmas jarayon bo‘lib bormoqda. S.N.Glazachevning fikricha, davr talabiga mos ravishda jamiyat va shaxsda ekologik

madaniyat qadriyatlarini ko'rsatish vazifasiga tayyorlash adabiyot, kimyo va fizika, gumanitar va tabiiy fanlar, jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy shakllanishining ichki, majburiy komponentidir. Ekologik ta'lim va tarbiyaning maqsadi ekologiya asoslarini o'qitish emas, balki ekologiya madaniyati, uning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdan iborat.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'limni ekologiyalashtirish global ta'limning g'oyasini amalga oshirish zarurati sifatida ham ko'rilishi mumkin, chunki aynan global ta'lim ekologik muammolarga ko'proq e'tibor berishga qodir. Global ta'lim, fikrimizcha, insonning ajralib turadigan faoliyati sifatida madaniyatning ziddiyatlarini yengib o'tishga oid faol urinishlarni amalga oshirishi mumkin. Sayyoramizning butun ekologik holati umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarning majburiy katalogiga kiradi. Insonning o'zi esa millati, tabaqasi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, dunyo xaritasining markazida bo'ladi, biroq bu markazning o'zi butun sayyoradagi hayotga majburiy kirish bilan sezilarli darajada kengayishi mumkin. Buning barchasi tadqiqotchi A.Shveyserning g'oyalari bilan hamohang. Uning hisoblashicha, hayotni asrab qolish, uni oldinga surish, rivojlanayotgan hayotni oliy pog'onagacha ko'tarish – insonga yaxshilik qilmoq degani; hayotni yo'q qilmoq, hayotni rivojlanishdan to'xtatish – unga yomonlik qilishdir.

Zamonaviy sharoitlarda oldimizda – yangi dunyo-qarash yondashuvlarni anglash va qabul qilish vazifasi turibdi, zero bashariyat o'ziga yaxshi kelajakni ta'minlay olishi uchun unga majburiy xatti-harakat tamoyil-larini almashtirishi zarur. Sayyoramizdagi butun bashariyatning ekologik muammolarni anglashga ehtiyoji mavjudligini ta'kidlab o'tish joiz. Akademik N.N.Moiseyev ta'kidlaganidek, umummadaniy nuqtai nazardan insoniyat tarixining kirib kelayotgan bosqichi biologik turimizning taqdirida va umumplanetar jamoaviy intellektni tarkib toptirishda aql rolini yanada oshishini anglatadi.

O'quv jarayonida ingliz tili darslarida talabalar turli bilim sohalaridagi muammolariga duch kelishi mumkin. Masalan, suv zaxiralariga oid turli muammolar bo'yicha matnlarni tahlil qilish, solishtirish, talabalarga tushuntirib berish va ularning vazifalari haqida tushuncha hosil qilishlari mumkin, hamda turli misollar keltirib o'tishni, analogiyalar (o'xshash holatlar) keltirishda umumiylikni topishga o'rganishadi.

Ta'kidlab o'tish muhimki, zamonaviy ta'limda global g'oyalarini amalga oshirish bir necha yo'nalishlar yordamida rivojlanishi mumkin:

- fanlararo modullarni yaratish;
- tegishli o‘quv fanlari, vositalari bo‘yicha global dunyo xaritasini yaratish.

Bundan tashqari, ingliz tili o‘quv fani sifatida qanchalik muhim ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi salohiyatga ega bo‘lishi mumkin-ligi bizga ravshan bo‘la boshlaydi. Metodik adabiyotlarda ingliz tilini o‘rganishning ushbu imkoniyatlarini qo‘llashning samarali vositalarini aniqlash muammosi hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada ta’kidlab o‘tishimiz mumkinki, ekologik ta’limda vazifalarni to‘g‘ri bir biriga mosligini ta’minlash va ingliz tilining o‘qitilishi ekologik madaniyatni oshirish va rivojlantirishga alohida hissa qo‘shishi mumkin. Ushbu jarayonga quyidagi omillar misol bo‘lishi mumkin.(1-rasm).

Инглиз тили ва экологияни таълимнинг барча босқичларида ўрганиш керак

Инглиз тилини ўқитишнинг замонавий усуллари талабларини экологик тематиканинг ахборий ва қизиқарли матнлари устида ишлаш ёрдамида грамматика, фонетика ва лексикани ўзлаштиришга эндаши керак

Инглиз тилини эгаллаш учун ўрганилаётган ибораларни бир неча бор такрорлаш ва ёдлаб қолиш керак. Улар устида ишлаш жараёнида талабалар атроф-муҳит ҳолати ҳақида кўпгина қизиқ ва муҳим далилларни ёдда сақлашга қодир. Бу шак-шубҳасиз экологик саводхонликни ошишига замин яратади

Ўқув-лисоний материаллар (илмий-оммабоп нашрлар, ҳужжатли фильмлар, мультимедиа материаллари) экологик муаммоларни талабалар томонидан ўзлаштириш даражасини акс этиши мумкин)

shakllantirishi mumkin. Ingliz tilini o‘rganish doirasida uning gumantar salohiyatini ham aniqlash mumkin, ya’ni fanni insonning faqat kognitiv emas, balki ma’naviy-axloqiy xususiyatlarini shakllantirish imkoniyati aniqlanadi.

Bundan tashqari, boshqa o‘quv fanlar singari ingliz tili faninig salohiyatini ham inobatga olish lozim. Masalan, ingliz tilidagi adabiyot amaliy ingliz tili bilan birgalikda ajoyib mazmun kashf etadi. Bu shakl uni global mazmun bilan to‘ldirganda yaxshi o‘zlashtiriladi.

Shuningdek, ingliz tili ekologik ta'limning mazmuni bo'lib kelishi ham mumkin. Shu tariqa u talabalarda yangi rakursda oddiy narsa va holatlarga o'zgacha xolis munosabatni shakllantiradi. Tabiiy fanlar yo'nalishlarida ingliz tili bo'yicha fan dasturi o'z ichiga:

- ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni;
- boshqa tildagi muloqotni;
- amaliy faoliyatni amalga oshirishni olish kerak.

Ta'limiy maqsadlarga erishish uchun esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, oliy ta'limni gumanizasiya va gumanitarizasiya qilish orqali amalga oshirish kerak. Bu jarayon talabalar dunyoqarashini ularning umumiy ma'lumotini, madaniyat va muloqotini oshirish orqali kengaytirishni anglatadi.

Ingliz tili o'quv fani madaniyatning turli muammolariga nisbatan o'zgacha “ochiqlikka” ega bo'lishi mumkin, ya'ni u mazmun borasida eng universal va shuning uchun ham biz uchun eng yaxshi o'qitish mazmunini to'ldirish imkoniyatlarini taqdim etadi).

Ingliz tilini o'rganishda turli global muammolarni o'rgatish talabalar qiziqishi, hamda ularning so'z boyligini oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu yo'sinda ular faol muloqotga jalb qilinadi. Bunda ekologik muammolar bilan tanishish xorijda sodir bo'lgan taqdirda, zarur o'xshashliklarni bizning mintaqa bilan o'tkazishning ham imkoni paydo bo'ladi. Bu har bir davlatning sog'liqni saqlash, biz uchun juda kerak bo'lgan ekologik tenglikni himoya qilish va ushlab turish sohasidagi ma'lum urinishlari va yutuqlarini ko'rib chiqishga yordam beradi. Yo'l-yo'lakay boshqa vazifa ham hal qilinishi mumkin, jumladan, alohida olingan joylarning ekologik muammolariga talabalarning yaxlit qarashini shakllantirish.v.h.k.

## XULOSA

Ingliz tili boshqa fanlardan kommunikativ yo'nalganligi bilan ham ajralib turadi. Ingliz tilida ma'lumot olish, qayta izlash va uni uzatish bilan bog'liq bo'lgan intellektual-kommunikativ kompetensiyalarni ongli shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ingliz tilini o'rganish jarayonida talabalar o'quv va kommunikativ faoliyatni sintez qilishga o'rgatiladilar. Bu faoliyatni ekologiya bilan uyg'unlashtirish ingliz tilini o'rganish sohasini kengaytirish imkonini beradi. Boshqa til madaniyatini o'rganish inson shaxsining ma'naviy-axloqiy dunyosini boyitish vositasi sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Ingliz tilini kommunikativ tarzda o'rganish muloqot modeli jarayonini tashkil qilishni nazarda tutishi kerak. O'qish jarayonida talabalar boshqa tilda muloqot qilish texnikasini o'rganishi, yakka va

jamo'a tartibida muloqot qilishda nutqiy madaniyat hamda etiket ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Bu istalgan mutaxassislik bo'yicha bo'lajak o'qituvchilar uchun ayniqsa dolzarb. Chet tilida muloqotga o'rganish qanday tashkil qilinganiga ko'p jihatdan boshqa fanlar bo'yicha global ta'lim sohasining muvaffaqiyati bilan bog'liq bo'ladi. O'z navbatida boshqa fanlar mazmuni talabalarni ingliz tilida qidirilayotgan axborotlar to'plami bilan ta'minlashi mumkin. Shu munosabat bilan biz ingliz tilidan ta'lim jarayoniga muayyan mavzularni kiritilishi o'rganilayotgan matn va mavzularga (demografiya muammolari, tabiiy zaxiralarning cheklanganligi, urbanizatsiya muammolari, tabiat qo'riqxonalarini asrash) sezilarli axborotlarni berishi mumkin. Bularning barchasi ta'lim oluvchilarning nafaqat o'rganilayotgan ingliz tili va ekologiya sohalarida dunyoqarashini kengaytirishi va so'z boyligini oshirishi mumkin, balki geologiyada, geografiyada, sosiologiya va boshqa turkum fanlarda ham o'z samarasini berishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Zaxleбны A.N Soderjaniye ekologicheskogo obrazovaniye v sredne obrazovatelnoy shkole (teoritecheskoye obosnovaniye i puti realizatsii ): avtoref.Diss. ... d-ra ped.Nauk.- 1986. – S.32
2. Ziyamuxamedov B. Maktab o'quvchilarini ekologiya va ekologik tarbiyasi. - T: O'qituvchi, 1998. – S. 15.
3. Ziyomuxammedov B. Ekologiya va ma'naviyat.- T.:Mehnat,1997. – 104b.
4. Zverev A.T. Ekologicheskoye mirovozzreniye – osnova ustoychivogo razvitiya // XVI Mejdunarodnaya konferensiya «Ekologicheskoye obrazovaniye v interesax ustoychivogo razvitiya» (Rossiya, Moskva, 25–26 iyunya 2010): tezisy dokladov i prezentatsiy XVI Mejdunarodnoy konferensii «Ekologicheskoye obrazovaniye v interesax ustoychivogo razvitiya». – SPb, 2010. – S. 94.
5. Iina A.N. Teoreticheskiye problemy vospitaniya u starsheklassnikov ekologicheskoy kultury kak chasti ix mirovozzreniya: Diss. ... kand. ped. nauk. – M., 1998. – S. 12.
6. Kuzibaevna, O. G. (2020). Technologies of developing the ecological culture of students in the process of learning a foreign languages in higher educational institutions. *Solid state technology*, 63(1s), 1816-1825.
7. Khasanova, G. K. (2021). MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING IN THE WORLD. *Oriental*

*renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1*(Special Issue 1), 257-262.

8. Khasanova G., Nikadambaeva K., Kenjaboev S. THE ROLE OF EDUCATION SYSTEM IN HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT //East European Scientific Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 2 (66). – С. 48-51.

9. Хашимова С.А. О НЕКОТОРЫХ ГРАММАТИЧЕСКИХ И СЕМАНТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЯХ УДВОЕНИЯ В ЛИНГВИСТИКЕ. - *Лингвистика XXI века: традиции и инновации.* – С. 444-451

10. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334-338.

11. Насирова, С. А. (2021). ВОЕННАЯ СИСТЕМА ДРЕВНЕГО КИТАЯ: ОБЗОР ТЕРМИНОВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1*(Special Issue 1), 139-146.

12. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10

13. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想" CHINESE DREAM" AND 类 命运 共同" COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"—A LINGUISTIC AREA. *Journal of Central Asian Social Studies*, 1(01), 05-14.

14. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1086-1092.